AXLOQ ME’YORLARI HAMDA ULARNING JAMIYATDA TUTGAN O‘RNI.

Kavilova Adolat Rashidovna
Qozon federal universiteti, Jizzax

Annotatsiya

Ushbu tezisda shaxs axloqiy tarbiyasini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o`rni masalalari, axloqiy me’yorlar va ularning jamiyatdagi o’rni haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: axloqiy tarbiya, ma’naviy meros, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, axloq normalari, shaxs barkamolligi, axloqiy me’yorlar, axloqiy ong, milliy qadriyat.

Аннотация

В данной диссертации даются сведения о роли национальных ценностей в формировании нравственного воспитания личности, моральных норм и их роли в обществе.

Ключевые слова: нравственное воспитание, нравственное наследие, духовно-нравственные ценности, моральные нормы, целостность личности, моральные нормы, нравственное сознание, национальная ценность.

Annotation

This thesis provides information about the role of national values in the formation of personal moral education, moral standards and their role in society.

Key words: moral education, moral heritage, spiritual and moral values, moral standards, personality integrity, moral standards, moral consciousness, national value.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy sohada islohatlarning amalga oshirilishi kelajagi buyuk davlatimizning yoshlarini har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli bo’lgan barkamol avlod tarbiyasi oldiga muhim vazifalarni qo’ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodni ma’naviy – ahloqiy jihatdan har tomonlama tarbiyalashni, ularda bilim, keng dunyoqarash va e’tiqodga ega bo’lishni talab etadi.

Axloq so‘zi arabcha xulq so‘zining ko‘plik shakli hisoblanadi. Xulq bu kichik guruhlar, masalan, oila, qarindoshlar kabi tor doiradagi sifatlarga nisbatan qo‘llanilsa, axloq insonning keng jamoatchilik, mahalla, maktab, oliygoh kabi joylarda aksar odamlar bilan muloqotdagi munosabatlarning xususiyatiga ishlatiladi. Axloq ilmiy jihatdan etika fanida o‘rganiladi. Muayyan me’yorlar, andozalar, bilim va qadriyatlar majmuasi jamiyatni barqarorligini ta’minlashga yaqindan yordam beradigan tushunchalar hisoblanadi. Har qaysi jamiyatda insonlar amal qilishi lozim bo‘lgan axloqiy me’yorlar va ko‘rsatmalar mavjud. Agarki, insonlar mana shunday me’yorlar va ko‘rsatmalarga amal qilib, rioa etib yashasalar, faoliyatlarini amalga oshirsalar jamiyat bir tekisda rivojlanishda davom etadi. Jamiyat tomonidan o‘zaro munosabatlarda qabul qilingan normalar, rag‘batlantirishlar va sanksiyalar umumiy qilib ustanovkalar deb yuritiladi. Biz bularni yana boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak ijtimoiy axloq mezonlari deb atashimiz mumkin.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g’oyasining o’quvchilar ongida aks etishidir. Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko’nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta’limtarbiya jarayonida yo’lga qo’yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g’oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo’jaligining turli

sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Qadriyat-voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy axloqiy, madaniy-ma'naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llaniladigan ijtimoiy-falsafiy va aksiologik tushuncha.Qadriyat tushunchasining asosi qadr so‘zi bo‘lib, u bir inson yoki jamoa tomonidan e'tirof etilgan, tan olingan va asrab avaylanadigan ma'naviy va moddiy boyliklar majmuasidir. Qadriyatlar aksiologiya fanining predmeti vazifasini bajaradi. Umuman qadriyat deganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmuini tushunamiz. Shuning uchun ham xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroflicha o‘rganish, ularni Respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirish, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lmoqda. Mazkur maqolada berilgan fikr va takliflar ayni vaqtida aytilganligini ta'kidlash zarur. Undagi takliflarni amalga oshirish orqali jamiyatni yanada taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri bu turli xil ommaviy axborot vositalari-internet saytlari, messenjerlar orqali yoshlarning ongiga singdirilayotgan turli xil buzg‘unchi g‘oyalar va ta'sirlardan milliy, axloqiy qadriyatlarimizga tayangan holda himoyalanishdir. Shu bilan birgalikda o‘sib kelayotgan yosh avlod tafakkurida ajdodlarning xotirasiga mehr va ularga izdoshlik ruhini shakllantirish ustuvor vazifalardan biridir. Buning uchun mamlakatimizda keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonda yoshlar soni 2022-yilning 1-yanvaridagi holatga ko‘ra 9 mln 685 mingdan ziyodni tashkil qilmoqda. Bu adad O‘zbekiston aholisiga nisbatan hisoblanganda taqriban mamlakat aholisining uchdan bir qismiga teng bo‘ladi. Shu hisob-kitoblarning o‘zi ham yoshlar davlatning eng muhim qismi ekanligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi O‘RQ-406-son “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni kuchga kirdi. Bu Qonun mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratish va ularning ilmiy va ijodiy faoliyatini rag‘batlantirish uchun keng shart-sharoitlarni yaratib berishga qaratilgan. Qonunning asosiy prinsiplarining uchinchisi - ma'naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi hisoblanadi. Shuningdek, bu Qonunning yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan bo‘lib, asosiy yo‘nalishlarning to‘rtinchisi yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish hisoblanadi. Bu boradagi ishlar samarasi o‘laroq O‘zMTRKda “Mahalla”, “Madaniyat va Ma'rifat”, “O‘zbekiston tarixi” telekanallari ish boshladi. Aholimizning dunyoqarashi va yoshlarimizning bugungi kundagi xohish-istaklarini inobatga olgan holda respublikamiz hududida mahallabay kesimida yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali o‘tkazish uchun turli xil to‘garaklar, sport musobaqalari tashkil etilmoqda. 2022-yilning 1 yanvaridagi holatga ko‘ra respublikamizda 52417 ta sport majmuasi faoliyat 622 ko‘rsatyotganligi haqida ma'lumot berilgan. Bu orqali yoshlarning bo‘sh vaqtlari samarali tashkil etilmoqda. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida maxsus dastur 2018-yilda “Harakatlar strategiyasiga” muvofiq ravishda ishlab chiqildi. Dasturdagi vazifalar to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib yosh kesimida taqsimlab chiqilgan. Dasturning maqsadi yoshlarni vatandan uzoqlashishdan asrash va ularda vatanparvarlikni kuchaytirishga qaratilgan. Yosh ilmiy xodimlar faoliyatini yoritish uchun “Yosh tadqiqotchi” jurnali va “Yoshlar kengashi” faoliyat yuritmoqda. Bu kengash faoliyatida yoshlarni ilmiy ijodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratish, ulardan yetishib chiqayotgan iste'dodli va malakali kadrlarni tayyorlashga diqqat qaratadi. Yuqorida ta'kidlangan islohotlardan yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish, turli yot g‘oyalardan ogoh etish va milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat paydo qilish ko‘zda tutilgan. Taklif va mulohazalar:

Birinchi, yoshlar uchun bo‘sh ish o‘rinlari sonini keskin ko‘paytirish zarur deb hisoblayman. O‘zbekistonda 2022-yilning 1-yanvardagi hisob kitobga ko‘ra ishsizlik ko‘rsatkichi

mehnatga layoqatli qatlamga nisbatan 9.6 foizni tashkil etgan. Bu 16-30 yoshlilar orasida tegishlicha 15.1 foizni tashkil etgan. Bu muammoning yechimi sifatida erkin tadbirkorlikni rivojlantirish va yoshlar o‘rtasida online kasblar masalan IT mutaxasisi, online buxgalteriya kabi faoliyat turlarini kengaytirish zarur.

Ikkinchi, yoshlarning kitob mutolaasi uchun hududlarda kutubxonalar sonini oshirish zarur. Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda kutubxonalar va axborot resurs markazlarining soni 2000 yilda 6027 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2020 yilga kelib 400 dona qolgan.. Shuningdek imkoniyati cheklangan yoshlar ko‘zi ojizlar va boshqa jismoniy nuqsonga ega kishilar uchun qadriyatlarimiz va milliy merosimizni chuqurroq anglashga xizmat qiladigan kitoblarning Brayl alifbosi va audio shaklidagi versiyalari hajmini ko‘paytirish lozim.

Uchinchi, yoshlarning ilmiy mehnatlarini munosib qadrlagan holda, maktabda yaxshi o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ichki, oliy ta’limda tahsil olayotgan namunali talabalar uchun tashqi turistik sayohatlar uchun qo‘shimcha mablag‘ ajratilishi zarur.

To‘rtinchi, madaniy meroslarimiz va qadriyatlarimizni rivojlantirishga xizmat qiladigan, milliyligimizga yo‘naltirilgan holda global ilovalarni yangi variantlarini ishlab chiqish va uni ommalashtirish zarur.

Beshinchi, yoshlardagi alkagol iste’moli va tamaki mahsulotlarining narxini ko‘tarish va xarid yoshini yuqoriroq qilish hamda buni qat’iy nazoratga olish lozim.

Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmugs tarzida o`ziga xos mezon vazifasini o`taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo`layotgan faoliyat turlari va rasmrusumlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo`ljallari, «zamona qahramoni» haqidagi tasavvurlari ham ma`naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy ma`naviy qadriyatlar ijobiy axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to`g`anoq bo`ladigan salbiy illatlarni bartaraf etish omilidir. Ma`naviyat, qadriyatlar va milliy g`oya - jamiyat hayotining juda murakkab va serqirra, o`zaro uzviy aloqadorlikda bo`lgan sohalaridir. Ma`naviyat, milliy qadriyatlar va istikdol g`oyalari alohida olingan har bir shaxs hayotida ham, jamiyatdagi turli guruh va qatlamlar faoliyatida ham, umuman insoniyat taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. Millat va davlat taraqqiyotining ma`lum davrlarida ma`naviyat va milliy g`oya eng dolzarb, hal qiluvchi omil bo`lib maydonga chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ibragimova G., To’raqulov X.A., Alibekova R. "Milliy istiqlol g’oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" fani bo’yicha yordamchi uslubiy qo’llanma. - Toshkent: Cho’lpon, 2003.

2. A.Haydarov shaxs kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar T.: Muharrir, 2008.

3. Karimov I.A. Vatan muqaddas, baland joy kabi. III jild; T., O‘zbekiston, 1996 yil.

4. Ma’naviyat asoslari E. Umarov., M. Abdullaev M-T-2016

5. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).

6. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). EXPLORING THE CONTENT OF MEDIA LITERACY: A COMPREHENSIVE REVIEW. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 107-110).

7. Надирова, Х. (2020). ASPECTS OF CLASSROOM METHODS. Общество и инновации, 1(1/s), 269-271.

8. Saliyeva, N. (2021). THE ROLE OF RAISING THE POLITICAL CULTURE OF YOUTH IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY IN UZBEKISTAN. In ОБЩЕСТВЕННЫЕ НАУКИ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ: ПОЛИТОЛОГИЯ, СОЦИОЛОГИЯ, ФИЛОСОФИЯ, ИСТОРИЯ (pp. 59-62).

9.https://wikipedia.uz

10.www.Ziyonet.uz

11. Veb. edu.uz